

AJINIYOZ QO`SIBOY O`G`LINING ASARLARIDA VATAN TA'RIFI

Abdimuratova Yulduzxon Rejep qizi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika
Institutining Turkiy tillar fakulteti
Qoraqalpoq tili va adabiyoti yo`nalishi
2-kurs talabasi

Annotasiya. Ushbu maqolamda XIX asrdagi qoraqalpoq xalqining yirik namoyandasi, shoir Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li va uning she'rlari Vatan ta'rifi. Vatanga bo'lgan muhabbat, shuningdek, xalqparvarlik misolida keltirib o'tilgan. Shuningdek, Ajiniyoz lirikasi to'rtta bo'linga bo'lib o'rgatilishi, uning she'rlarining mazmun-mohiyati haqida so'z etilgan.

Kalit so'zlar: adabiyot, qoraqalpoq adabiyoti, lirika, Vatanparvarlik, "Ellarim bordir", "Bordur".

So'z badiiy adabiyotning asosiy ish quroli hisoblanadi. O'zi ko'zga ko'rinmaydigan so'z yordamida nafaqat atrofdagi narsa-hodisalar, balki odam boshidagi o'ylar, ko'ngildagi tuyg'ularni ham ifodalash mumkin bo'ladi. Shuning uchun san'at turlari orasida adabiyot alohida o'rin tutadi. Insonning o'y-xayollari, istak va armonlari badiiy adabiyotda to'laroq aks ettiriladi. Inson ma'naviyatini boyitish uchun har qanday adabiyot emas, balki yuksak badiiyat talablariga javob bera oladigan asarlar zarur bo'ladi. Badiiy asar ta'sirli va yaxshi bo'lishi, u har qanday kitobxon qalbiga zavq-shavq bag'ishlashi bilan birga ezgu o'y hamda orzular yo'liga yaqinlashtirishi zarur.

XIX asrdagi qoraqalpoq adabiyotining eng yirik vakillaridan biri Ajiniyoz Qo'siboy o'g'lining ijodi boshqa zamondoshlariga qaraganda juda kata farqga ega. U o'z davrining chuqur fikrlovchisi, bilimlisi sifatida arab, fors va turkey tillarini yaxshi o'zlashtirgan alohida ahamiyatga ega qobilyat ega so'z ustasi.

Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li 1828-yili Mo'ynoq tumanida tug'ilgan. Oto-bobolari baliqchilik, ovchilik va dehqonchilik bilan kun kechiradigan odamlardan bo'lgan.

Ajiniyoz yoshligidan o'qishga qiziquvchan, ziyrak, chaqqon, bilim olishga talpinuvchan bo'lib voyaga yetdi. U madrasada o'qib yurgan paytlarida Navoiy, Saadiy, Sheraziy, Fizuliylarning asarlarini chuqur o'rgangan. Ularning donishmandlik bilan aytgan so'zlarini xalqga yetkazishga maqsad etdi.

Undan bizga harxil mavzuda yozilgan biryuz ellikga yaqin lirik she'rlari me'ros bo'lib qolgan.

Ajiniyoz lirikasini birnechta mavzularga bo'lib qarash mumkin. U asosan muhabbat lirikasining so'z ustasi bo'lishi bilan birga, lirikada Vatanni sevish,

Vatansevarlik va didaktik hislarni qadrlay olgan shoir. Shuning uchun ham uning lirikasini:

1. Vatan mavzusi va o`z davriga bo`lgan ko`zqarashlarini ifodalovchi lirikasi;
2. Falsafik mazmundagi lirikasi;
3. Didaktik mazmundagi lirikasi;
4. Muhabbat lirikasi deb qarash mumkin bo`ladi.

Hárqanday shoir o`z xalqining suyuqli farzandi hisoblanadi. Shunday ekan, birinchi navbatda o`z Vatanini, xalqini va undagi insonlarning dardini kuylaydi.

Shoirilar o`zining tug`ilgan elini boshqa xalqlarga tanitishga harakat yasamog`I so`zsiz. Shu kabi sabablar bilan Ajiniyoz ko`pgina ta`rif she`rlarini yozgan.

Masalan, uning “Ellarim bordir” she`ri Qozog`istonda bo`lgan safarida Qizil O`rdaning e`tiborga loyiq boylarning biri Qojbanning aytishi bo`yicha yozilganligi ma`lim. Bu qo`shiq ta`rif usulida yozilgan bo`lib, qozoq boylaridan bo`lgan Qojbanga o`zining tug`ilib o`sgan yurtini katta faxr bilan bayon etgan.

Shoir Urganchdan boshlab Orol dengiziga qadar oraliqni tilga oladi. Bu yerlarning go`zzal tabiyatini, boyligini, xalqning totuvligini, milliy etnografik xususiyatlarini aytadi. Masalan:

So`rasang elimni, Qojban, bizlardan,
Qalpog`i qozonday ellarim bordir.
Xato chiqsa, kechiringlar so`zlardan,
Xitoy, qo`ng`irot otli ellarim bordir.

Yaylovim keng, Urganch, shimoli – dengiz,
Yag`rini qopqoqday mollari semiz,
Ruxsatsiz biron-bir yerga bosmas iz,
Birikkan qo`ng`irot ellarim bordir, - deb yozgan.

Haqiqatdan ham, shoirning yozilgan bu qo`shig`ida Vatansevarlik, Vatanga bo`lgan muhabbat, uni chin qalbdan yaxshi ko`rish tuyg`ulari ifodalangan.

Shuningdek, she`rning ushbu qatorlarida:
Yodga tushsa, ko`nglim tog` kabi o`sgan,
Ko`zim ko`rmaguncha ko`kayim kesgan,
Yilda meva tugib, uch bora pishgan
Oti sutilmakday yemishim bordir.

Sarhovuz bo`yida soyali terak,
Tilni tars yorguvchi polizu palak,
Qirlarda qizarib pishadi gurvak,

Qovunday mazali taomim bordir, - deb yozib, sahro yemishlarining o`ziga xos bo`lgan qovun, sutilmak, gurvak, qoramiqlarni faxr bilan tilga oladi.

Yolg'on so'zni ishontirib aytmagan,
To'g'ri yo'ldan bosh ketsa ham qaytmagan,
Nomahramni sira yo'ldosh tutmagan,

Nomi qoraqalpoq ellarim bordir,- bu qatorlarda bo'lsa xalqimizning haqiqat, adolat ustida kurashishi, harqanday vaziyatda ham so'zlariga yolg'on aralashirmay, to'g'rilik uchun hechqachon o'z yo'lidan qaytmagan mard, jasur, Vatansevar qahramonlarimizni tilga olgan. Ajiniyozning «Bordur» qo'shig'i ham shunday mavzuda yozilgan. Bu qo'shig'i shoirning ikkincha marotaba qirga borganida yozilgan. Chunki, bu qo'shig'ida shu davrga xos bo'lgan qoraqalpoq yigitlari bilan qizlariga baho beradi. Shuningdek, unda o'z elining suvi mo'l-ko'l dehqonchilikga boy tabiyatini, qushlarini, do odamlari bilan qiz-yigitlarining mardlik ishlari bilan odob-axloqini bor qobilyati bilan mohir ta'rif berib o'tgan.

Ajiniyoz Turkmanistonda yurgan paytlarida turkman klassik shoiri Maqtimqulining she'rlarini katta qiziqish bilan o'rgangan va unga bog'liqli ko'pgina she'rlarini o'z ijod namunasi sifatida kengaytib yozgan. Shu bilan qatorda, uning Qozog'istonda yurgan paytlarda ayni shoirlik mahoratining eng gullagan davri desak ham bo'ladi. U yerlarda yurib, uch yildek umrini o'tkazgan va "Ellarim bordir", "Megzar", "Bormikan", "Bordur", "Ayrilsa", "Qoch-qoch", "Xayrlashuv" to'plamidagi she'rlarini yozib qoldirgan.

Xulosa qilib aytganda, Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li qoraqalpoq adabiyotining XIX asrning eng yirik namoyondasi, qoraqalpoq xalqining dardini o'z qo'shiqlarida namoyon etgan, xalqimiz orasida keng e'tirofga ega bo'lgan lirik va patriot shoir. Uning ijod namunalari xalqlar o'rtasida do'stona munosabatlarni rivojlantirishga hamda yosh avlodni vatanparvarlik va xalqparvarlik ruhida tarbiyalab, kelajak avlodning Vatanga bo'lgan muhabbatini, uning harbir go'shasini asrab-avaylashga, qadr-qimmatini tushinib yetishga undaydi. Shoirning she'r-u, qo'shiqlari va barcha ijod ishlari yoshlarning ma'naviyatini, madaniy salohiyatini oshirishda hissasi katta. Buning uchun bo'lajak yosh avlod Ajiniyozning asarlarini mutolaa qilishi, uning mazmun-mohiyatini tushinib yetishlari zarur bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K. Mambetov, K.Palimbetov. "Qaraqalpaq a'debiyati" 10-klass ushin sabaqliq, No'kis, 2017-y.
2. <https://qomus.info>
3. <https://uz.wikipedia.org>